


2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida jami **2 737,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilishishlar ihajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2593 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 411 taga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **109,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **128,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarning **141,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,2 %**) o'sishidir.

**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
Buxoro viloyati	2182	2593	118,8
Buxoro sh.	731	842	115,2
Kogon sh.	71	103	145,1
tumanlar:			
Olot	59	61	103,4
Buxoro	167	210	125,7
Vobkent	96	110	114,6
G'ijduvon	155	188	121,3
Kogon	102	132	129,4
Qorako'l	66	92	139,4
Qorovulbozor	30	42	140,0
Peshko'	116	141	121,6
Romitan	192	214	111,5
Jondor	197	226	114,7
Shofirkon	200	232	116,0



Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni 01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalarini Buxoro shahrida(32,5 %), Shofirkon (8,9 %) va Jondor (8,7 %) tumanida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **393,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **125,6 %** ni tashkil qilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,6 %** punktga ko'payib, **14,4 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da

■ 2019- yil yanvar-iyun

■ 2020- yil yanvar-iyun




O'SISH SUR'ATI 125,6 %

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **78,5 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **112,6 %**), Olot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,6 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,3 %**), va Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **84,9 marta ko'p**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2019 - yil yanvar-iyun
- 2020 - yil yanvar-iyun


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,3** % to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,8** % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,2** % ni tashkil etgan holda **1404,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari **939,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,0** % ni tashkil qilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,8** % punktga kamayib, **34,3** % ni tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari


o'sish sur'ati % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **152,7** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **96,5 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 585,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **5,6 %** va **94,4 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2020- yil yanvar-iyun

Buxoro viloyatida qurilish ishlari



**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	2737,8	152,7	100,0	2585,1	100,0
Buxoro sh.	659,5	42,8	28,0	616,7	23,7
Kogon sh.	191,9	4,4	2,8	187,5	7,3
tumanlar:					
Olot	199,4	8,6	5,6	190,8	7,4
Buxoro	230,8	13,7	9,0	217,1	8,4
Vobkent	77,7	3,3	2,2	74,4	2,9
G'ijduvon	273,6	4,6	3,0	269,0	10,4
Kogon	188,9	2,5	1,6	186,4	7,2
Qorako'l	140,3	28,2	18,5	112,1	4,3
Qorovulbozor	155,1	6,0	3,9	149,1	5,8
Peshko'	122,9	4,2	2,8	118,7	4,6
Romitan	194,5	13,6	8,9	180,9	7,0
Jondor	154,1	5,3	3,5	148,8	5,8
Shofirkon	149,1	15,5	10,2	133,6	5,2



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Buxoro viloyati	2737,8	104,2	100,0
Buxoro sh.	659,5	100,3	24,1
Kogon sh.	191,9	137,3	7,1
tumanlar:			
Olot	199,4	100,5	7,3
Buxoro	230,8	102,7	8,4
Vobkent	77,7	102,8	2,8
G’ijduvon	273,6	100,8	10,0
Kogon	188,9	106,1	6,9
Qorako‘l	140,3	111,6	5,1
Qorovulbozor	155,1	111,2	5,7
Peshko‘	122,9	100,3	4,5
Romitan	194,5	101,1	7,1
Jondor	154,1	100,5	5,6
Shofirkon	149,1	101,1	5,4



Viloyatning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-iyun

14,1

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

17,2

Fuqarolik obyektlarini
qurish

68,7

Bino va inshootlarni
qurish

15,5

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

15,3

Fuqarolik obyektlarini
qurish

69,2

Binolar va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko'payib, **47,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,4 %** punktga kamayib, **49,6 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **70,4 %** (**4,4 %** punktga kamaydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1%** punktga kamaydi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,9** % punktga ko'paydi va **49,7** % ni tashkil etdi. Qolgan **50,3** %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,9** % punktga kamaydi.







**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida
qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

mldr. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2737,8	1893,4	418,7	425,7
Buxoro sh.	659,5	460,0	116,9	82,6
Kogon sh.	191,9	96,6	49,0	46,3
tumanlar:				
Olot	199,4	120,6	11,0	67,8
Buxoro	230,8	178,4	21,5	30,9
Vobkent	77,7	57,8	11,2	8,7
G'ijduvon	273,6	235,8	13,8	24,0
Kogon	188,9	109,7	33,8	45,4
Qorako'l	140,3	93,9	40,7	5,7
Qorovulbozor	155,1	56,1	29,1	69,9
Peshko'	122,9	105,0	14,3	3,6
Romitan	194,5	144,9	30,2	19,4
Jondor	154,1	135,4	14,1	4,6
Shofirkon	149,1	99,2	33,1	16,8


Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da.

**Binolar va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilish ishlaringin umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **87,9** % i yoki 135,4 mlrd. so'm), shuningdek, G'ijduvon tumanida (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **86,2** % i yoki 273,6 mlrd. so'm), Peshko' tumani ham (ushbu hududda joylashgan bino va inshootlari qurilishining umumiy hajmidan **85,5** % i yoki 105,0 mlrd. so'm), o'z ulushiga ega.

Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorako'l tumanida (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining 29,0 %i yoki **40,7** mlrd. so'm), Shofirkon tumanı (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining **22,2** %i yoki **33,1** mlrd. so'm), Kogon shahri (ushbu hududda joylashgan fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmidan **25,5** % yoki **49,0** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **45,1** %i yoki **69,9** mlrd. so'm), Olot tumanida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **34,0** %i yoki **67,8** mlrd. so'm), Kogon shahrida (ushbu hududda joylashgan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmidan **24,1** % yoki **46,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylarida

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Buxoro sh.
659,5

1

2

G'ijduvon tumani
273,6

Buxoro tumani
230,8

3



Kichikhajm (mlrd. so'm)

Vobkent tumani
77,7

1

2

Peshko' tumani
122,9

3

Qorako'l tumani
140,3





BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Telefon raqam: (65) 223-81-99